



Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2023-yil 5-sentabr, seshanba,
105 (23.826)-son

**KUN
HIKMATI**

Yaxshi maqsad
havasdan
emas, ilm va
farosatdan
tugʻiladi

1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan



www.zarnews.uz <https://www.facebook.com/zarnews.uz> [@zarnews_uz](https://twitter.com/zarnews_uz) https://twitter.com/zarnews_uz

SAMARQANDDA SHENSI PROVINSIYASI KONSULLIGI OCHILADI

Xitoy Xalq Respublikasining
Shensi provinsiyasi partiya
qoʻmitasi kotibi Chjao Ide bosh-
chiligidagi delegatsiya 2-sentabr
kuni viloyatimizda boʻldi.



Viloyat hokimi Erkinjon Turdimov bilan uchrashuv-
da ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini mustahkam-
lash borasidagi asosiy yoʻnalishlar boʻyicha oʻzaro
fikr almashildi.

- Samarqand va Shensi provinsiyasi oʻrtasida-
gi hamkorlik va doʻstlik aloqalari qadimiy asosga
ega, bugungi tashrif buni yanada mustahkamlashga
xizmat qiladi, - dedi viloyat hokimi E.Turdimov. -
Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respub-
likasi yetakchisi bilan muloqotlari davomida ushbu
tarixiy hamkorlik rishtalarini yanada mustahkamlab,
ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni yangi bosqichga koʻtarish
haqida koʻrsatma bergan edi. Shu asosda amalga
oshirilayotgan hamkorlik yil sayin rivojlanib bormoq-
da. Shensi provinsiyasining kambagʻallikni qisqar-
tirish, sanoatni rivojlantirish borasidagi tajribasini
viloyatimizning Qoʻshrabot va Payariq tumanlarida
joriy etgan holda ishbiarmon doira vakillarini man-
faatli hamkorlikka chorlaymiz. Bu har ikki tomon
uchun ayni paytda oʻta muhim deb oʻylayman. Shu-
ningdek, ikki tomon ishbiarmonlarining aloqalarini
mustahkamlash uchun alohida yoʻl xaritasi ishlab
chiqib, ularning muntazam fikr almashishi uchun
ishchi guruh tuzish ham maqsadlarimizni amaliyotga
joriy etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Uchrashuvda Chjao Ide samimiy qabul uchun
minnatdorlik bildirib, Erkinjon Turdimov tomonidan
bildirilgan tashabbuslarni toʻliq qoʻllab-quvvatlashini
maʼlum qildi.

- Mamlakatlarimiz rahbarlari oʻzaro hamkorlikni
rivojlantirish borasida bildirgan tashabbuslari ikki
xalq oʻrtasidagi qadimiy doʻstlik rishtalarini yanada

mustahkamlashga xizmat qilmoqda, - dedi Chjao
Ide. - Biz barcha sohalaridagi hamkorlikdan man-
faatdormiz. Shu bois Samarqandda Shensi provin-
siyasining konsulligini tashkil etish oʻzaro hamkor-
ligimizni, ikki xalq oʻrtasida doʻstlik aloqalarini yangi
bosqichga koʻtarishga xizmat qiladi.

Muloqot davomida Samarqand va Shensi oʻrtasi-
dagi ijtimoiy-iqtisodiy hamkorlik istiqbollari borasida-
gi qator takliflar oʻrtaga tashlanib, kelgusida eʼtibor
qaratilishi lozim boʻlgan yoʻnalishlar xususida atrofla-
cha soʻz yuritildi.

Uchrashuvdan soʻng Erkinjon Turdimov va Chjao
Ide Samarqand viloyati va Shensi provinsiyasi tadbir-
korlarining biznes-forumida ishtirok etishdi. Forum
ochilish marosimida soʻzga chiqqan rahbarlar hudud-
lar oʻrtasidagi hamkorlik qadimida ishbiarmon doira
vakillari tomonidan amalga oshirilganligini taʼkidlab,
bugungi kundagi manfaatli aloqalar har ikki tomon
tadbirkorlarining oʻzaro hamkorligiga bogʻliq ekanligini
qayd etishdi. Shu bois forum doirasida belgilangan
muloqotlarda har ikki tomon vakillari faol boʻlib, is-
tiqbolliloyihalarni amalga oshirish boʻyicha kelishuvlar-
ni amalga oshirishlari lozimligini taʼkidlashdi.

Samarqand viloyati va Shensi provinsiyasi tadbir-
korlarining biznes-forumida har ikki tomon ishbiar-
monlari oʻz taqdimotlarini namoyish etib, takliflarini
oʻrtaga tashlashdi. B2B koʻrinishidagi muloqotlar
davomida qator loyihalar muhokama qilindi.

Biznes forum yakunida ikki tomonlama hamkorlik-
ka oid memorandumlar imzolandi.

**A.ISROILOV,
B.MUSTANOV.**

BIRINCHI PREZIDENTIMIZ XOTIRLANDI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 2-sentabr
kuni Samarqand shahridagi Hazrati Xizr
majmuasiga tashrif buyurib, Islom Karimov
maqbarasini ziyorat qildi. Qabr poyiga gul
qoʻyib, Birinchi Prezidentimiz xotirasiga hur-
mat bajo keltirdi.

Qurʼon oyatlari tilovat etilib, duo oʻqildi.
Islom Abdugʻaniyevich Karimov Oʻzbekiston mus-
taqilligini eʼlon qilib, davlat boshqaruvini yangidan qur-
gan, tariximizning murakkab va ogʻir davrlarida barqa-
rorlikni saqlab, xalqimiz manfaatlarini taʼminlagan.
Prezident Shavkat Mirziyoyev uning bu xizmatlari-
ni munosib qadrladi. Davlatimiz rahbarining 2017-yil
25-yanvardagi qaroriga muvofiq, Birinchi Prezidentimiz
xotirasini abadiylashtirish boʻyicha koʻp ishlar qilindi.
Yurtimizdagi yirik majmualar, shaharlardagi markaziy
koʻchalarga Islom Karimov nomi berildi. Toshkentda Is-
lom Karimov nomidagi ilmiy-maʼrifiy yodgorlik majmu-
asi tashkil qilindi, Samarqandda maqbara barpo etildi.

Fidoyilarini eʼzozlaydigan xalqimiz Birinchi Presiden-
timizni hurmat bilan yodga oladi. Ushbu xotirlash maro-
simi ham oʻtganlar yodiga hurmat, yosh avlodga ibrat
maktabidir.

Marosimda parlament va hukumat aʼzolari, jamoat
tashkilotlari vakillari, mehnat faxriylari ishtirok etdi.

OʻZA



Bir maktabga 631 nafar bola birinchi sinfga qabul qilindi



Kecha viloyatimizning barcha
umumtaʼlim maktablarida "Yangi ha-
yot uchun, yangi Oʻzbekiston uchun!"
shiori ostida "Birinchi qoʻngʻiroq"
tadbirlari oʻtkazildi.

Samarqand shahridagi 81-umumiy
oʻrta taʼlim maktabida boʻlib oʻtgan
ana shunday tadbirda viloyat hokimi
oʻrinbosari Rustam Qobilov ishtirok
etdi va oʻquvchilarni bayram bilan

quttadi.
- Viloyatimizda eng katta mak-
tablardan biri boʻlgan ushbu taʼlim
muassasasi joylashgan Qorasuv mas-
sivida qariyb 45 ming nafarga yaqin
aholi istiqomat qiladi, - deydi R.Qobi-
lov. - Shaharchada yosh oilalar koʻp.
Shuning uchun ham yangi oʻquv
yilida bu maktabga 631 nafar bola
birinchi sinfga qabul qilingan.

Samarqand shahridagi 58-umumiy oʻrta taʼlim maktabida ham "Birinchi
qoʻngʻiroq" tadbiri oʻtkazildi. Bayramona bezatilgan taʼlim dargohi oʻquvchi-
larga yana oʻz eshiklarini ochdi.

Yangi oʻquv yilida taʼlim muassasasiga 95 nafar oʻgʻil-qiz birinchi sinfga
qabul qilingan.

1-sinf oʻquvchilarining har biriga "Prezident sovgʻasi" topshirildi.

**Toʻliq SIDDIQOV,
Husan ELTOYEV.**

**Bugun viloyatda 13 ta oliy taʼlim
muassasasi faoliyat yuritmoqda.
Ulardan ikkitasi, yaʼni Samarqand
Xalqaro texnologiya universiteti va
Toshkent kimyo xalqaro universi-
teti Samarqand filiali xususiy oliy
taʼlim muassasasi hisoblanadi.
Qolganlari davlat oliy taʼlim muas-
sasasidir.**

Yangi oʻquv yilida viloyatdagi oliy taʼlim
muassasalarida qanday yangiliklar boʻldi?
Samarqand iqtisodiyot va servis insti-
tutida davlat-xususiy sheriklik asosida 240
oʻrinli talabalar turar joyi foydalanishga
topshirildi. Shuningdek, 375 oʻrinli mavjud
talabalar turarjoyi taʼmirlandi. Institut futbol
maydoni toʻliq sunʼiy chim bilan qoplandi.
Mashgʻulotlar oʻtkazish uchun qoʻshimcha
sport jihozlari oʻrnatildi.
Samarqand davlat universiteti Urgut
filialining yangi oʻquv binosi foydalanishga
topshirildi. Shuningdek, filialda davlat-xu-
susiy sheriklik asosida 600 oʻrinli talabalar

Oliy oʻquv yurtlarida oʻquv yili qanday boshlandi?



turarjoyi qurilmoqda.

Samarqand davlat arxitektura-qurilish
universitetida joriy oʻquv yilida madaniy

meros obyektlarini asrash fakulteti ochildi
va unga jami 80 nafar talaba oʻqishga qabul
qilindi. Ayni paytda universitetda 3 ming

oʻrinli yangi oʻquv binosi qurilmoqda.
25-avgust kuni Germaniyaning OPASCA
tashkiloti bilan Samarqand davlat tibbiyot
universiteti va Samarqand davlat chet tillar
institutini oʻrtasidagi memorandum doirasida
uch tomonlama shartnoma imzolandi.
Kelishuvga koʻra, universitetning jamoat
salomatligi texnikumlari hamda OPASCA
oʻrtasida oʻzaro akademik mobillik doirasida
talabalarni oʻqitish tizimi yoʻlga qoʻyila-
di. Dastur 2+1 shaklida amalga oshirilib,
hamshirlik ishi yoʻnalishida tahsil oladi-
gan talabalarga 2 yil nemis tili oʻrgatiladi
va ular 1 yil tahsilni Germaniyada davom
ettirish imkoniga ega boʻladi.

Respublika Prezidentining 2023-yil
7-iyuldagi "Agrar sohada ilm-fan, taʼlim
va ishlab chiqarishni integratsiya qilish
orqali sifat va samaradorlikni oshirishning
qoʻshimcha chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi
qaroriga asosan, Toshkent davlat agrar
universiteti Samarqand filiali Samarqand
agroiinnovatsiyalar va tadqiqotlar institutiga
aylantirildi.

Xurshida ERNAZAROVA.

**2023-2024-oʻquv
yilida viloyatda-
gi umumiy oʻrta
taʼlim muassasa-
larida 780 ming
340 nafar oʻquvchi
taʼlim-tarbiya ola-
di. Ulardan 1-sinf-
ga qabul qilingan
bolalar 82 ming
435 nafarni tashkil
etadi.**

Maktablarda qancha oʻquvchi oʻqiydi?

Bugun viloyat boʻyicha
1267 ta umumiy oʻrta
taʼlim maktabi faoliyat
koʻrsatmoqda. Jumladan,
8 ta maxsus maktab-in-
ternat, 1 ta Prezident
maktabi hamda 15 ta
Prezident taʼlim muassa-
salari agentligi tasarru-
fidagi ixtisoslashtirilgan
maktab va maktab-inter-
natlari mavjud.

Viloyat maktablari 1,3
koeffitsientli boʻlib, de-
yarli barcha maktablarda
bolalar ikki navbatda tahsil
oladi.

Maktablarda 60 ming
nafar oʻqituvchi mehnat
qiladi. Oʻqituvchilarning
9,5 foizi oliy toifali, 19,9
foizi birinchi toifali va 25,7
foizi ikkinchi toifalidir.

Bu yil viloyatda ikkita
maktab yangidan qurili-
shi va 32 ta maktabga
qoʻshimcha oʻquv binosi
qurish rejalashtirilgan
boʻlib, ayni paytda qurili-
shlari davom etmoqda.
Yangi binolar hisobiga 10
ming 200 oʻquvchi oʻrni
yaratilishi koʻzda tutilgan.

BAYRAM OQQO'RG'ONLIK UCHUN ESDA QOLARLI BO'LDI

Payariq tumanining Oqqo'rg'on va Sorisuv mahallalarida «Obod xonadon», «Obod ko'cha» va «Obod mahalla» mezonlarini joriy etish, hudud infratuzilmasini yaxshilash, aholi bandligini ta'minlash va og'ir hudud toifasidan chiqarish bo'yicha keng ko'lami ishlar amalga oshirildi. Mustaqillik bayrami arafasida amalga oshirilgan ishlar bugun aholi hayotini o'zgartirib, ularning roziligiga xizmat qilyapti. Oqqo'rg'on mahallasida o'tkazilgan bayram tadbirlarida odamlarning yuz-ko'zidan buni anglash qiyin emasdi.

BAYRAMGA MUNOSIB TUHFA

"Yangi hayot uchun, Yangi O'zbekiston uchun!" g'oyasi asosida o'tkazilgan bayram tadbirlari erta tongda yurish marafoni va ertalabki badantariya mashg'ulotlari bilan boshlandi.

Bir necha yillardan beri aholini qiynay kelayotgan yo'l muammosi hal etildi, - deydi Abdurashid bobo Ermanov. Ravon yo'lda yurib kelar ekanmiz, ko'p yillik orzuimiz amalga oshganidan xursand bo'ldik. Mahallamiz, yurtimiz bundan-da gullab-yashnashini Yaratgandan so'rab, duolar qildik.

Bayram munosabati bilan mahallada arzonlashtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkasi tashkil etildi.

Maqsad - bayram arafasida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish, - deydi tuman hokimining o'rinbosari Maqsud Husaynov.

Mahsulotlar "Daladan dasturxonaga" tamoyili asosida keltirilyapti. Shuning uchun bordan 25-30 foiz arzon.

Poytaxtdan kelgan taniqli olim, adabiyot va san'at namoyandalardan iborat targ'ibotchilar ishtirokida o'tkazilayotgan ma'naviyat festivali tadbirlari shu kuni Payariq tumanida davom etdi.

Dastur doirasida amalga oshirilgan ishlar sarhisob qilinib, aholining hamijahatligi, jonkuyarligi ishchi guruh tomonidan haqli e'tirof etildi. Bayram munosabati bilan bu ishlarga o'z hissasini qo'shganlarga minnatdorlik bildirildi. Alohida jonbozlik ko'rsatganlar turli nominatsiyalar bo'yicha e'tirof etilib, taqdirlandi.

OBOD XONADON

Mazkur mahallalarda Prezident Ad-ministratsiyasi, Xalq qabulxonasi, sohaviy tashkilotlar vakillari, viloyat va tuman sektor rahbarlari, mahalladagi "beshlik"dan iborat Respublika ishchi guruhi xonadonma-xonadon yurib, aholi muammolarini o'rgandi. "Xonadonbay" o'rganish asosida aholining turmush sharoitini yaxshilash, tomorqadan samarali foydalanish, oillardagi ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish bo'yicha targ'ibot o'tkazishdi.

Ishchi guruh tomonidan "Obod xonadon" nominatsiyasi bo'yicha rag'bat-

lantiruvchi mukofotlar berildi.

Mahallamizda faoliyat olib borgan ishchi guruh xonadonimizga kelib, sharoitlarimizni o'rgandi, - deydi Saroyqo'rg'on ko'chasi 13-uyda istiqomat qiluvchi Aziza Daminova. - Doimo xonadonimizni ozoda saqlaymiz, tomorqamizdan unumli foydalanib, ro'zg'orimizga zarur bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ekamiz. Xonadonimizning obodligi ularning e'tiboriga tushganidan mamnun bo'ldim. Bugun "Obod xonadon" nominatsiyasi bo'yicha 5 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlashdi.

Oilalarning ehtiyojlari o'rganilib, 24 ta xonadonga uy jihozlari olib berildi. Ko'makka muhtoj oila farzandlarining 55 nafariga homiylik tomonidan maktab formalari sovg'a qilindi. - Er-xotin ishsizligimiz sabab ro'zg'ordan orttirib, shu kungacha uyimizga jihoz olishga imkoniyatimiz bo'lmagan, - deydi Dilfuza Shomurodova. - Bizga berilgan jihozlar jamlanmasi bilan ro'zg'orimiz to'kis bo'ldi. Buni o'z mablag'imizga sotib olishga qurbimiz yetmasdi.

OBOD KO'CHA

Dastur doirasida Oqqo'rg'on va Sorisuv mahallasidagi Po'latchi, Qiyot, Balandqo'rg'on kabi o'nga yaqin tuproq ko'chalarning qariyb 2 kilometr qismiga shag'al yotqizildi.

Obodonlashtirish davrida ko'cha ahlining inoqligi asqotdi, - deydi "Obod ko'cha" nominatsiyasi g'olibi, 27 ta xonadon joylashgan Yonariq ko'chasining ko'chaboshisi Abduhamid Mirzaqulov. - Yo'limizni shag'allashtirish ishlarida hashar qilib, imkoniyatimiz darajasida o'z hissamizni qo'shдик va bugun 3 million so'm pul mukofoti oldik. Endi bu pulni ko'chamizga tungi yoritkichlar o'rnatish



uchun sarflash niyatidamiz. Muhimi, amalga oshirgan ishlari-mizdan nafaqat ko'chamiz, avvalo, ko'nglimiz obod bo'ldi.

OBOD MAHALLA

Oqqo'rg'onliklarning xursandchiligiga sabab bo'lgan eng muhim ish umum-foydalanuvdagi Saroyqo'rg'on, Langar ko'chalarning 3 kilometr qismi asfaltlangani bo'ldi.

Oqqo'rg'ondagi ish faoliyatimiz davomida shunga amin bo'ldimki, bu obodonchilikni hudud aholisining ishtirokisiz amalga oshirishning imkoniyati yo'q, - deydi Respublika ishchi guruhi a'zosi Telman O'rinov. - Ahillik bo'lgan joyda obodlik bo'ladi. To'g'ri, ayrim ishlarimizni bugungacha tugatishning imkoniyati bo'lmasdi. Xususan, mahalla markazi binosini yana bir necha kundan so'ng foydalanishga topshiramiz. 700 million so'm evaziga qurilayotgan binoning ikkinchi qavatida xotin-qizlarning salomatlik va tadbirkorlik markazi tashkil etiladi.

Hududda aholi to'liq tibbiy ko'rikdan o'tkazilib, 15 ta yengil jarrohlik amaliyoti o'tkazildi. Maktab faollar va sport zallari joriy ta'mirlandi.

Biz yashab kelayotgan hududda o'ziga xos muammo va qiyinchiliklar ko'p edi, - deydi Oqqo'rg'on mahallasi raisi Furqat Xolmurodov. - Ayniqsa, yog'in-sochinni kunlarda ko'chalarda yurish mushkul edi. Farzandlarimizning maktabga qatnashi qiyin bo'lib qolardi. Bolalarning bo'sh vaqtlarida o'ynaydigan birorta joy yo'q edi. Boshqa hududlardagi sharoitlarni ko'rib, havas qilardik. Mana, qisqa vaqtda olib borilgan qurilish hamda obodonlashtirish ishlarining natijasida bugun mahallamiz obod manzillardan biriga aylandi.

Shu kuni hududda o'tkazilgan bayram tantanalari kechki payt madaniy tadbir bilan davom etdi. Unda Yoshlar ishleri agentligi direktori Alisher Sa'dullayev, tuman hokimi Ibroil Jabborovlar ishtirok etib, Oqqo'rg'on va Sorisuv mahallalari aholisini bayram bilan qutladi. Poytaxtdan kelgan taniqli san'atkorlarning chiqishlari tadbirga bayramona fayz kiritdi.

To'liqin SIDDIQOV,
Sulaymon MARDIYEV,
Baxtiyor MUSTANOV (surat).

28-avgust kuni Prezidentimiz raisligida o'tkazilgan videoselektorda yangi o'quv yilidan maktablarda joriy etiladigan tartiblar, o'qituvchilarni tanlov asosida ishga qabul qilish, maktab direktorini yangicha tartib asosida tayinlash tizimi joriy etilayotgani haqida gapirildi.

Maktabdagi islohotlar ta'lim sifatiga xizmat qiladi

Darhaqiqat, bugun ta'limga berilayotgan e'tibor ertaga davlatimiz rivoji uchun xizmat qilishi shubhasiz. Yildan-yilga o'quvchilarning bilimi pasayib ketayotgani, oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda kam ball to'playotgani maktab ta'limini isloh qilishni taqozo etmoqda.

Yangi o'quv yilidan boshlab maktabga ilk bor qabul qilingan nomzod bir yil o'qituvchi-stajyor bo'lib ishlaydi. Bir yil davomida u tajribali o'qituvchilarning darslarini kuzatadi, ustoz-shogird an'anasi asosida ko'nikmaga ega bo'ladi. O'qituvchi-stajyor yil yakunida kasbiy sertifikat olishi lozim. Shundan keyin u maktabda dars bera oladi. Avvallari yangi o'qituvchiga birdaniga ma'lum ajratilardi. Shu bilan u o'qituvchilik qilib ketaverardi. Ammo u kasbni qanday uddalayapti, bolalarga bilim bera olayaptimi, degan masalalarga e'tibor berilmasdi.

Prezidentimiz o'z chiqishlarida kelgusida Singapur va Birlashgan Arab Amirli tajribasi asosida pedagog kadrlarga kasbiy sertifikat berish tartibi ishlab chiqilishini ma'lum qildi.

O'qituvchilarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning ish haqini ko'tarish bilan birga, ulardan sifatli ta'lim berishning talab qilinayotgani adolatli islohot bo'layotganidan darakdir. Endi tanish-bilish orqali ishga kirib olgan, o'zi haminqadar dars o'tadigan o'qituvchilar bunday talabdan keyin yo'z ustida ishlab, bilimni oshiradi yoki ishdan ketadi.

Shuningdek, yangi tartibga ko'ra, maktab direktorini tayinlash direktorlar kengashi tomonidan joriy etilishi, maktab direktorlari sertifikatsiyadan o'tkazib turilishi, sertifikatsiyadan o'tolmagan direktorlar ishdan ketishi masalasi kiritilyapti. Bunday tartib joriy etilsa, maktablarni munosib rahbarlar boshqaradi. Munosib rahbar ishlagan jamoaning ish samarasi ham yaxshi bo'ladi.

Davlatimiz rahbari yuqori sinfda o'qitiladigan fanlar 16 tadan 11 taga qisqarishini aytdi. Bunda oliygohga kirishga ehtiyoji yuqori bo'lgan 10-11-sinflarga kimyo, biologiya, fizika, matematika, chet



tili, ona tili kabi fanlar ularning tanlovi asosida chuqurlashtirilib o'qitilishi ta'kidlandi. Ushbu tartib joriy etilsa, maktabga bormasdan repetitora qatnayotgan ba'zi yuqori sinf o'quvchilari maktabga qaytadi. Yildan-yilga yuqori sinf o'quvchilarning maktabga kelmayotgani, maktab direktorlari ham o'qishga kirsang mayli, deb ruxsat berayotgani avj olayotgandi. Bu muammo ham ushbu tartib bilan hal etilsa, nur ustiga a'lo bo'lardi.

Shuningdek, maktablarda bosqichma-bosqich kasb-hunar kurslarining ochilishi oliy ta'limda o'qish istagi bo'lmagan yoshlarni kasb-hunarga o'rgatadi. Maktabni kasb egasi bo'lib bitirgan yoshlar ertaga ishsiz qolmaydi. Bunday tartib oliy ta'lim muassasasiga kirolmagan minglab yoshlarning bo'sh qolishiga imkon bermaydi.

Maktab ta'limidagi bunday islohotlar bugun maktablarda mavjud muammolarning yechilishiga asos bo'ladi. Shuningdek, maktabda ta'lim sifatining yaxshilanishi, milliy reytingning ko'tarilishi, o'qituvchilarning bilim saviyasi oshishiga zamin yaratadi.

Zarina OLIMOVA,
Samarqand tumanidagi
16-umumiy o'rta ta'lim
maktabi direktorining o'quv ishlari
bo'yicha o'rinbosari,
xalq ta'limi a'lochisi.

BU - FAKT!

2023-yil yanvar-iyun oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 13 215,7 milliard so'mga yetdi. Taqqoslama ekvivalentda o'tgan yilning shu davriga nisbatan 110,4 foizni tashkil etdi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 3 193,2 ming so'm bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 108 foizni tashkil qilgan. Viloyat statistika boshqarmasi axborot xizmati.

E'tirof

Mashaqqatlarni aritgan "Shuhrat"



Yaqinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga ko'ra Toyloq tumani-dagi Muborak mahallasida yashovchi 104 yoshli onaxon Marziya Shamsiyeva "Shuhrat" medali bilan mukofotlandi. 8 farzand, 85 nevara, yetti nafar evara, bir nafar chevarali piru badavlat onaxon o'tgan asrning 20-yillarida tavallud topgan.

Viloyat hokimining o'rinbosari Bahodir Qodirov, Toyloq tumani hokimi Bahodir Bobonazarov hamda tuman faollari onaxonga mukofotni topshirib, Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi bilan tabrikladi. Medalni ko'ksiga taqqan, pul mukofotini ko'rpacha ostiga qistirgan onaxon hamma qiyinchiliklari unut bo'lganini aytib, jilmaydi.

Boshing mehnatdan chiqmasa ham shunchalik ko'p yashash mumkin ekan, - deya sokinlik bilan jilmayib gapiradi onaxon. - Qahatchilikni ham, ocharchilikni ham, bir daqiqa tin olmay mehnat qilishni ham - hammasini ko'rdik. Balki shu qiyinchiliklar evaziga bugungi yorug' kunlarni ko'rsin deb uzoq yashatdiman Xudoyim, deb o'ylab qolaman. Tan-jonlaring sog' bo'lsin, xalqimizga xizmat qilayotgan Prezidentimizga, barcha-barchaga rahmat, boshlaring omon bo'lsin, yurtimiz tinch, xonadonlarimiz obod bo'lsin!

Onaxon titroq qo'llari bilan uzun duo qilar ekan, ko'zlarida yosh dumaladi. Ehtimol, bir burda non izlab, och uxlab qolgan bolaligi yodiga tushgandir, balki urush yillaridagi har kun bir uydan chiqqan yig'i ovozlari qulog'iga chalingandir yoki bugungi kunlarga shukronalikdan ko'zlariga yosh qalqandir. Axir bir asrdan oshgan momo bilan uzoq suhbatlashishning imkoniyati yo'q-da. Qaniydi imkon bo'lsa, yillar ko'ngliga qatlagan tashvish quvonchlarini birma-bir bayon etsang.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

Talabalar uchun yangi yotoqxonalar



nasi va xotin-qizlar uchun kasb-hunar markazi, kiyim yuvish xonasi tashkil etilmoqda.

Xonalar 4, 6 va 8 kishilik bo'lib, talabalar bilan o'quv yili yakuniga qadar shartnoma tuzilgan va turarjoy o'rniga qarab, narxlar belgilangan. Masalan, to'rt kishilik xonada turgan talabalar har biri oyiga 565 ming so'm ijara puli to'laydi. Shundan 165 ming so'mi davlat tomonidan to'lab beriladi.

Ushbu hududda 2024-2025-o'quv yilida institutga qarashli yana bitta 600 o'rinli talabalar turarjoyi quriladi va yaqinda yotoqxonalar yonida maishiy xizmat ko'rsatish markazi ishga tushiriladi. Markazda savdo kompleksi, sport bilan shug'ullanish uchun zal, kimyoviy tozalash shoxobchasi, atele, sartaroshxona hamda oshxonalar faoliyat boshlaydi.

- Yotoqxonada talabalar uchun zarur qulayliklar yaratilgan, - deydi Samarqand iqtisodiyot va servis instituti rektori Muhiddin Po'latov. - Bu yerga 2-4-kurs talabalari joylashtirilmoqda. Muassasamizda to'qqiz ming nafarga yaqin talaba tahsil oladi. Shundan to'rt ming nafari kunduzgi ta'lim shaklida o'qiydi va 1600 nafar talabaning yotoqxonaga ehtiyoji bor.

Institutimizga qarashli 375 o'rinli talabalar yotoqxonasi ham bu yil 1,2 milliard so'mlik ta'mirlash ishlari olib borildi va yotoqxonaga 1-kurs talabalari joylashmoqda. Joriy yil 615 nafar talaba yotoqxonalariga joylashtirib, qolgan talabalarga ijara uylaridan joy topishlari uchun yordam beriladi.

Samarqand davlat tibbiyot universitetining besh qavatli yangi talabalar turarjoyi 620 o'ringa mo'ljallangan. Yotoqxonaga qurilishiga 19 milliard so'm sarflangan bo'lib, mazkur binoda ham talabalar uchun zarur sharoitlar yaratilgan.

Yil oxiriga qadar Samarqand davlat universitetida har biri 450 o'ringa mo'ljallangan ikkita (biri shaharning Chuquryo'l hududida, ikkinchisi Jomboydagi agrobiotexnologiyalar va oziq-ovqat xavfsizligi institutida) davlat-xususiy sheriklik asosida talabalar turarjoylari foydalanishga topshirilishi rejalashtirilgan. Shuningdek, "Ipak yo'li" xalqaro turizm va madaniy meros universiteti hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Samarqand filialida bittadan talabalar turarjoyi qurilishi belgilangan.

2021-yil 9-sentabrda Vazirlar Mahkamasining "Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turarjoy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilingan. Unga ko'ra, 2022-yildan 2025-yilga qadar Samarqand viloyatida 10 ming o'rinli 25 ta talabalar turarjoylari qurish rejalashtirilgan.

Qarorga muvofiq, joriy yil viloyatda davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida 7 ta talabalar turarjoyi foydalanishga topshirilishi belgilangan. Shu yil 10-mart kuni Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filialining 400 o'rinli yotoqxonasi foydalanishga topshirilgan edi.

2023-2024-o'quv yili oldidan Samarqand iqtisodiyot va servis instituti va Samarqand davlat tibbiyot universitetining yangi yotoqxonalar ham talabalar ni qabul qildi. Yotoqxonalar "Samarqand Sheben klass" MCHJ tomonidan qurilgan bo'lib, Samarqand shahar Rudakiy ko'chasida joylashgan.

Qurilish korxonasi rahbari Bobur Xudoyberdiyevning ta'kidlashicha, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti qarashli besh qavatli yotoqxonaning qurilish ishlariga 8,5 milliard so'm mablag' sarflangan. Bino gaz va elektrlashgan bo'lib, 50 kilovattli quyosh paneli ham o'rnatilgan. Har bir qavatda oshxonalar, Wi-Fi zonasi o'rnatilgan hamda xonalarda alohida yuvinish joyi, sanuzellar bor. Ayni paytda binoning birinchi qavatida kutubxona, kompyuter xo-



"Yangi nafas"

ommaviy yugurish marafonida 8 mingdan ortiq havaskor sportchi qatnashdi



Vatanimiz mustaqilligining 32 yilligi munosabati bilan 3-sentabr kuni yurtimizning 16 shahrida, jumladan, Samarqandda "Bir Vatanda, bir vaqtda, bir masofaga, bir maqsadda – birga yuguramiz!" shiori ostida "Yangi nafas" ommaviy yugurish musobaqasi o'tkazildi.

An'anaviy o'tkazib kelinayotgan musobaqa Samarqand xalqaro turizm markazida start oldi. Unda 7 yoshdan 80 yoshgacha bo'lgan 8 mingdan ortiq havaskor sportchi ishtirok etib, 4 kilometr masofaga yugurdi.

Musobaqa yakuniga ko'ra, erkaklar o'rtasidagi bahsda birinchi va uchinchi o'rinlarni pastdarg'omlik Komil Fozilov hamda Alisher Axmatilloev egallagan bo'lsa, ikkinchi o'rin TATU Samarqand filiali talabasi Alisher Saparovga nasib etdi.

Qizlar bahsida birinchi, ikkinchi va uchinchi o'rinlarni pastdarg'omlik sportchilar Elnoz Maxmaochilova, Farangiz Olimova va Kamola Abrayeva qo'lga kiritdi.



Musobaqada imkoniyati cheklangan shaxslar o'rtasida g'oliblikni qo'lga kiritgan ishtirokchilar, shuningdek, turli nominatsiyalar bo'yicha havaskor sportchilar ham taqdirlandi.

Baxtiyor MUSTANOV.

Ko'p qirrali iqtidor sohibi, vatanparvar shaxs va Samarqand iftixori Nosir Norovich Yoqubov shu kunlarda o'zining qutlug' 80 yoshini nishonlamogda.

Yoshi ulug' yurtdoshlarimiz u kishini juda yaxshi biladi va qadrlaydi. Istardikki, hayot yo'lini endigina shakllantirayotgan yosh avlod ham bunday zamondoshlarimizni tanisin, ulardagi yaxshi xislatlarni o'rgansin.

Nosir Yoqubov Samarqand shahrida, ibratli oilada tug'ilib o'sdi. Hayotini elga xizmat qilishga bag'ishladi, turli rahbarlik lavozimlarida faoliyat ko'rsatdi.

Har bir inson hayotida uning kelajagini belgilab beruvchi buriilish nuqtasi bo'ladi. 1961-yilda o'rta maktabni tugatib, yetuklik attestatini qo'lga kiritgan yosh Nosirjon uchun o'sha davrda shahardagi yirik korxonalaridan biri bo'lgan "Kinap" zavodida ishlab, hayot saboqlarini olishga qaror qilishi shunday tub buriilish nuqtasi vazifasini o'tagan bo'lsa, ajabmas.

Vaholanki, Nosirjonning otasi – Nor Yoqubovning o'sha paytlarda eng yuqori lavozimlarda, ya'ni xalq deputatlari Samarqand viloyati ijroiya qo'mitasi raisi, Samarqand viloyati partiya qo'mitasining bosh kotibi, keyin esa respublika prokurori sifatida faoliyat ko'rsatganligiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning zavodda ishlashi ancha erish tuyuladi. Zavod ishchisi sifatida toblangan

Samarqand farzandi

Nosirjon 1963-yilda Samarqand davlat universitetining rus filologiyasi fakultetiga o'qishga kirib, bu qutlug' dargohda akademik Vohid Abdullayev, professorlar V.Larsev, R.Muqumov, L.Royzenzon, A.Tixonov, N.Shukurov, Yu.Avaliani va boshqa fan darg'alaridan iborat ustozlar maktabi sabog'ini oldi. Shu bilan birga, yozgi ta'lim davrida talabalar qurilish otryadlarida mehnat qilib, bunyodkorlik ishlariga hissa qo'shdi.

Nosirjonning tashkilotchilik, jonkuyarlik e'tiborga olinib, hali kunduzgi bo'limda o'qib yurgan vaqtdayoq Samarqand shahar yoshlar tashkilotiga ishga qabul qilindi. Shu tariqa u shahar va viloyat yoshlar tashkilotlarida rahbarlik lavozimlarigacha astoydil mehnat qildi.

1976-yilning oktabr oyida Nosir Norovich qaytadan tashkil etilgan Bog'ishamol rayon partiya qo'mitasi birinchi sekretari lavozimiga saylandi. So'ngra, 1988-yilgacha Temiryo'l va Siyob rayon partiya qo'mitalarini boshqardi.

Ishonch bilan aytish mumkinki, o'sha paytlarda Samarqandda mahalla va mehnat jamoalaridagi ishlarning holati, ulardagi zarurat va muammolar borasida hech kim u kishidek ma'lumotga ega emas edi. Shuning uchun ham 1988-yilda uni shahar partiya qo'mitasining birinchi kotibi etib saylashdi.

Bugun ham Samarqand shahrida Nosir Yoqubov boshchiligidagi o'sha



yillarda amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlarining yorqin izlarini ko'rasiz. Uning bevosita ishtirokida Samarqandda Kimyo zavodi, "8-mart" fabrikasi, temir yo'l vokzali va boshqa yirik binolar qad rostlandi, yo'llar ta'mirlandi, oromgoh va xiyobonlar tashkil etildi.

Afg'onistonda kechgan urush yillarida Nosir Norovich bu qo'shni mamlakatga safarbar etildi va urush tufayli vayron bo'lgan obyektlarni qayta tiklashga katta hissa qo'shdi.

O'zbekiston Prezidentining tavsiyasi bilan 1993-yilda N.Yoqubov O'zbekiston Respublikasining Qozog'istondagi birinchi Favqulodda va Muxtor elchisi etib tayinlandi.

Bu fidoyi insonning diplomatik iqtidori borasida ko'p narsani yozish mumkin. Zero, bu xalqaro doirada yosh o'zbek diplomatiyasining dastlabki va ancha murakkab qadamlari edi.

Nosir Norovichning madaniy hayot va tarix bo'yicha zukkoligi, ayniqsa, jonajon yurtimiz tarixi va madaniyatini o'rganish va targ'ib etish borasidagi xizmatlari ham beqiyos. Tarix fanlari nomzodi N.Yoqubov o'ta noyob, ayniqsa, sayyohlar orasida juda mashhur sanalagan hamda qayta-qayta nashr qilinayotgan Samarqand haqidagi qadimiyoma va afsonalar kitoblarining muallifidir.

U o'zining uzoq yillik mashaqqatli izlanishlari asosida yaratilgan va hozirda e'zozlangan holda saqlab kelayotgan noyob nashrlari, qomusiy lug'atlari, ma'lumotnomalari, arxiv materiallaridan tashkil topgan betakror kutubxonasi bilan faxrlanadi. U yana o'zining uy ustachiligiga oid ishlarini ham boshqalarga g'urur bilan ko'rsatadi. Haqiqatan ham Nosir Norovich ajoyib duradgor, g'isht teruvchi, chilangar, dala hovlida bog'bon – bir so'z bilan aytganda, qo'li gul ustadir.

Qo'shib-chatib aytish emas, aslida ham Nosir Norovich Yoqubovdek zamondoshimiz bilan faxrlanamiz va Samarqandning asl farzandini 80 yoshi bilan muborakbod etamiz.

Yusuf ABDULLAYEV,
Samarqand xalqaro texnologiya universiteti rektori, professor, pedagogika fanlari doktori.

NNTlarga ajratilgan mablag'lar

aniq maqsadlarga yo'naltirilmoqda

Viloyat Matbuot uyida xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi tomonidan joriy yilda NNTlarga ajratilgan davlat subsidiyasining sarflanishi bo'yicha mazkur tashkilotlar rahbarlarining hisobotlari tinglandi.



Tadbirida xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi ijtimoiy sheriklik bo'yicha jamoat komissiyasi raisi, senator F.Toshev "Ijtimoiy sheriklik to'g'risida"gi Qonun hamda Prezidentimizning 2022-yil 29-apreldagi "Ijtimoiy himoya va yordamga muhtoj aholi qatlamlarini moddiy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, 2023-yil 1-yanvardan boshlab, bir qator nodavlat notijorat tashkilotlariga ajratilayotgan mablag'lar hisobidan nogironligi bo'lgan shaxslarni reabilitatsiya qilish, ularga ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha yaqindan ko'maklashib kelinayotganini ta'kidladi.

Jumladan, xalq deputatlari viloyat Kengashi huzuridagi jamoat fondi tomonidan nogironligi bo'lgan shaxslar faoliyatini qo'llab-quvvatlash maqsadida 2 milliard 801 million so'm subsidiya mablag'lari ajratilgan.

Tadbirida O'zbekiston nogironlar assotsiatsiyasi viloyat bo'limi (100,3 million so'm), karlar jamiyati viloyat bo'limi (154 million so'm), ko'zi ojizlar jamiyati viloyat, tuman va shahar bo'limlari (1 milliard 295 million so'm), nogironlar jamiyati viloyat, tuman va

shahar bo'limlari (1 milliard 251,4 million so'm) rahbarlari subsidiya mablag'lari qanday maqsad va yo'nalishlarga sarflanganligi xususida axborot berishdi.

– Yaqin kunlarga tashkilotimiz a'zolariga turli sohalarida faoliyat yuritishlari uchun yordam ko'rsatishda moliyaviy tomondan qo'limiz kaitalik qilib kelar edi, – deydi O'zbekiston nogironlar jamiyati viloyat bo'limi raisi D.Pardayev. – Joriy yilda davlat subsidiyasi mablag'lari ajratilishi bilan bu muammoga yechim topildi. Endilikda davlatimiz tomonidan NNTlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari faoliyatini kengaytirish va nogironligi bo'lgan shaxslarga ijtimoiy yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu paytgacha jamiyatimiz qoshida 13 ta korxonatashkilot faoliyat ko'rsatgan bo'lsa, joriy yilda ularning soni 21 taga yetdi.

Tadbirida davlat subsidiyasi yordamida faoliyatini kengaytirishni istagan jamiyat a'zolari o'zlarini qiziqitirgan savollarga mutasaddilardan javob olishdi.

D.TO'XTAYEV.

2023-2024-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, ularda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy va kreativ fikrlash, jamoa bo'lib ishlash, tadqiqotchilik kabi ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim dasturlari bosqichma-bosqich amaliyotga kiritiladi. Bunda, 1-4-sinflarda o'quvchilarni ilg'or xorijiy tajriba asosida ishlab chiqilgan darsliklar bo'yicha o'qitish, 5-9-sinflarda o'quvchilarga umumta'lim fanlaridan tayanch bilim berish, 10-11-sinf o'quvchilarining qiziqish va qobiliyatiga mos bo'lgan ixtisoslashgan dasturlar asosida o'qitish tizimi joriy etiladi.

Yangi o'quv yilidan maktablarda nimalar o'zgardi?

Yangi o'quv yilidan boshlab har bir tuman (shahar)ning bittadan umumiy o'rta ta'lim muassasasida o'quvchilarni ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish amaliyoti bosqichma-bosqich yo'lga qo'yiladi. Viloyatimizda esa Oqdaryo tajribasi asosida har bir tuman (shahar)da o'ntadan maktabda bosqichma-bosqich bunday amaliyot yo'lga qo'yiladi.

Bundan tashqari, 1-sinfdan kompyuter savodxonligi, yuqori sinflarda moli-

yaviy savodxonlik darslari joriy etiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilariga bepul oziq-ovqat beriladi.

Endi maktab direktorlari va o'rinbosarlari har besh yilda bir marta sertifikatsiyadan o'tadi. Sertifikatsiyadan o'tgan direktorlar oyiligi 50 foizga, o'rinbosarlar ish haqi 30 foizga oshiriladi. Sertifikatsiyadan o'ta olmagan direktorlar bilan tuzilgan mehnat shartnomalari bekor qilinadi.

Turistik-rekreatsiyon zonada

etno, eko, agro, ekstremal hamda djaylo turizm yo'lga qo'yiladi

Samarqand tumani 3-sektori hududida, shuningdek, 14 ta maktabda qiymati 430 million so'm bo'lgan 150 ta ovozi videokameralar o'rnatilib, ta'lim jarayoni onlayn boshqariladi.

Bu haqda tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i, 3-sektor rahbari Anvar Rahmatov hududda 2023-yil yakuniga qadar aholi bandligini ta'minlash va jinoyatchilikni kamaytirish bo'yicha jamoatchilikka bergan hisobotida aytib o'tdi.

Hisobotda keltirilishicha, sektor hududida o'quvchilarni zamonaviy kasblarga o'qitish va xonalarni jihozlash uchun 400 million so'm ajratiladi.

Shuningdek, qolgan ishsiz aholining bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilab olingan. Xususan, yil yakuniga qadar yana 2,6 ming ishsiz bandligini ta'minlash va qariyb 258 ta (1066 nafar aholi) oilani kambag'allikdan chiqarish choralari ko'rilmogda.

Misol uchun, tumandagi Ohalik, Oqbo'yra va Mironqul mahallalaridagi 1720 gektar maydonda turizmni rivojlantirish, xususan, etno, eko, agro, ekstremal hamda djaylo turizm bo'yicha mavjud imkoniyatlarni safarbar qilgan holda "Ohalik-Oqbo'yra-Mironqul" turistik-rekreat-

siyon zonasi tashkil etiladi.

Loyiha doirasida 35 million dollar investitsiya jalb etilib, 3000 ga yaqin ish o'rni tashkil etiladi hamda mahalliy budjetga yillik qo'shimcha 8 milliard so'm tushum zaxirasi yaratiladi.

Anvar Rahmatov hisoboti davomida hududda huquqbuzarlik va jinoyatchilikning oldini olish borasidagi ishlar va galday rejalarda ham axborot berdi. Qayd etilishicha, mavjud 74 ta mahalladan 12 tasi "qizil", 25 tasi "sariq" va 37 tasi "yashil" toifaga kiritilgan.

Amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida nomusga tegish, bosqinchilik va transport vositasini olib qochish kabi og'ir va o'ta og'ir turdagi jinoyatlar sodir etilishiga yo'l qo'yilmagan. Lekin hududda yengil tan jarohati yetkazish (3/11), o'g'rilik (25/44), bezorilik (1/2) jinoyatlari oshgan.

Sektor rahbari bu borada qilinishi lozim bo'lgan ishlarga yo'xtalib, jamoatchilik oldida turgan vazifalarni ham qayd etdi.

DA'VOLAR BO'LSA...

Samarqand tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasida marhum Halimova Muxabbatga (2009-yil 17-noyabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Davronov Mahmud Hasan o'g'li notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand tumani Oqmachit mahallasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasida marhum Rizayev Mamatga (2011-yil 31-mayda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Bahromova Feruza Zoirovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko'chasi, 121-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob

Berdiqulovich notarial idorasida marhum Jumayev Raxmatillo Fayziloyevichga (2022-yil 12-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasida

marhum Zulfikarov Achilga (2014-yil 4-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'rlarning Hazratqulov Mahmud Mo'minqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Amir Temur ko'chasi, 36-uy.

TOPGANGA MUKOFOT!

Samarqand viloyati ichki ishlar boshqar-masidan 2006-yil 8-fevralda Kabildjano-va E'tibor Xudjumovnaga berilgan 2858

raqamli pensiya guvohnomasi Samarqand shahri hududida tushirib qoldirilgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99890-227-82-08.

"Maroqand sement invest" MCHJga tegishli davlat raqami 30 GA 711 bo'lgan "ZL 50 GN" rusumli yuklagichning texnik pasporti Oqdaryo tumani hududida yo'qolgan. Ushbu hujjatni topganlardan mukofot evaziga qaytarishlarini so'raymiz.

Telefon: +99897-391-19-92.

Buxorodan maktab

SAMARQAND – HIKMATLAR YURTI

Yoxud Mehnat qahramoni
Shamsi Nazarovni eslab

Ota yurtimga bu galgi tashrifim benihoya hayajonga soldi: Samarqand butunlay o'zgarib ketibdi. Aniqrug'ni, u o'zining qadimiyl shuhratiga ega bo'libdi. Tarixiy obidalar chiroy ochishi barobarida ko'chalar, ulkan yangi inshootlar qad ko'taribdi. Odamlarida ham o'zgacha bir kayfiyat, xushnudlik ko'rdim. Aslida men uchun bu ko'hna kent hamisha hikmat bo'lgan. Bugun "Zarafshon" gazetasi o'quvchilariga ana shu anglagan hikmatlarimdan, saboqlarimdan birini baham ko'rgim keldi...



Gap betakror inson, haqiqiy oila boshlig'i, halol, sofдил kishi, o'z ishini chin dildan suyg'an, umrining har bir daqiqasini odamlarga bag'ishlagan, lekin kamtarin ijodkor, rahbar, Mehnat qahramoni Shamsi Nazarov haqida.

Yo'q-yo'q, hurmatli mustahri, mening ta'riflarim kitobiy emas, balki ularning barchasini bu odamda ko'rganim uchun aytyapman. Zero, bu xulosalarim dastlab jurnalist, keyinchalik viloyat yoshlari partiya tashkilotlarida xizmat yuzasidan munosabatlarda kuzatganlarim natijasidir. To'g'risini aytсам, o'z hayoti misolida ko'p saboq bergan bu inson qadrini otamdan kam ko'rgan emasman. Chunki men u kishida otamdagi kabi ibratni, mehribonlikni ko'rganman.

Garchi viloyatning u yoki bu tumanida yakkam-dukkam zamonaviy hovlilarga ko'zim tushgan bo'lsa-da, o'tgan asrning 80-yillari boshida Paxtachidagi Xumorgo'rg'ochasiga borganimda hayratga tushganman. Katta ko'chadan boshlanadigan turnaqat qo'shqaavatli uylar, bolalar madaniyat saroyi, maktab, li-monariya, profilaktoriyini ko'rib, shaharga keldimmi, deb o'yladim. Sal ichkariroqda katta futbol stadioni, fin hammomi ham qurilgan. O'sha davrda qishloq aholisi bunday turmush tarzini afsona deb o'ylardi. Chunki u hech qayerda yo'q edi. Shuning uchun bo'lsa kerak, "Pravda" gazetasi mana shu ishlarining tashabbuskori Sh.Nazarov haqida "Ham arxitektor, ham rahbar", degan maqola bosilgan edi. Zero, bu inson ana shu maqomga munosib edi.

Meni quvontirgan narsa har bir xonadonning yashashga, dam olishga, hordiq chiqarishga qulayligi, 6 sotixlik hovlida tomorqachadan tashqari, qo'y yoki bir bosh sigir boqishga ham sharoit qilingan. Darvoqe, isitish tizimi ham esdan chiqmagan. Uy-joy, kommunal to'lovlar ham shahardagi tizimga moslashtirilgan. Odamlar bilan suhbatlashganimda esa ular o'z sharoitlarining qulayligini aytish o'rniga, shu savobli ishni qilgan xo'jalik raisini ta'riflab ketishdi.

Xullas, shirin taassurot menga orom bermadi. Viloyat targ'ibot guruhida ishlaganim uchun ana shunday fidoyilikka

Ra'no Sohibova ishtirokida tug'ilib o'sgan. Jurnalist. Tuman gazetasi, viloyat yoshlar va partiya qo'mitalarida faoliyat ko'rsatgan. Buxorolik ziyoli insonga turmushga chiqqan. Bugungi kunda pensiyada bo'lishiga qaramay, Buxoroning faol ayollaridan. "Mehrshafqat va salomatlik" jamg'armasi viloyat bo'limini boshqaradi.

javob bergim keldi. Va, o'sha paytda el o'rtasida tanilgan aka-uka Ismoil va Isroil Vahobovlarni xo'jalikka boshlab keldim. Ular Toshkentdan targ'ibotchilar safida tashrif buyurishgan edi. Guruh ichida qiziqchi ham, sozand ham, raqqosa ham, kinoaktyorlar ham bor edi. Ular ham shaharchani ko'rib, hayratlanishdi va bu yerdagi juda ko'p xizmatlardan foydalanishdi. Ana undan keyin avval xo'jalik konsert zalida, keyinchalik brigadalarda rosa tomosha berishdi.

Men rainsing shijoatiga havas qildim. Shamsi aka birpas san'atkorlar bilan san'at, adabiyot haqida suhbatlashadi, yozuvchi va shoirlar hayotidan hikoyalar so'zlab beradi va yana dalaga otlanadi, qaytib kelib, suhbatni davom ettiradi. Xullas, hammasiga ulguradi. So'rab bilsak, Shamsi aka asli til va adabiyoti fani o'qituvchisi ekan. Maktabda, tuman xalq ta'limi bo'limida ishlagan, ko'plab ijodkorlar bilan muloqot qilib turar ekan. Yana bir yangilikni eshitdikki, Sunnatilla Anorboyev, Odil Yoqubov, Zohidjon Obidov kabi taniqli adiblar 4-5 kunlab rainsing uyida mehmon bo'lib, maqola yoki asar yozib ketishar ekan. Rainsing o'zi shunday qilganligi uchun yangi uylarda yashovchilar ham tomorqasidan unumli foydalanib, hatto tovuq va qo'ylar boqar ekan. Rainsing yana bitta fe'lini o'rgandik: doimo oddiy kiyinadi. Ertalab tongda qo'lini orqasiga qilib, yangi shaharchani aylanib chiqar ekan.

...Hayot tasodiflarga to'la. Ayniqsa, sen kutmagan noxush holatlar doim ham yuragingga iztirib soladi. Nadomatlar bo'lsin, Xumorga bu galgi kelishimda ana shunday holatga tushdim. Ko'chada hech kim yo'q, idorada ham bir ayolu bir erkakdan boshqa xodim topolmadim. Bir gap so'rasang, yelka qisib qo'yishadi. Hayron bo'lib, rainsing xonasiga yurdim, u kishi yo'q edi. Orqamdan partiya tashkiloti kotibi Shovqiddin Shukurov kirib keldi, uning ham kayfiyati yo'q. Shovqiddin og'ir "uf" tortib, kuni kecha viloyat partiya qo'mitasining ikkinchi kotibi Y.Berezov kelib, zalga 100 nafarga yaqin odamni yig'ib, Shamsi Nazarovni ishdan bo'shatganini aytdi. "Odamlarga ham tushunmadim, nima-ga majlis bo'lganini, viloyatdan kelgan "katta" qo'l ko'tar desa, ko'tarishdi, tushir desa, tushirishdi. Bor gap shu. Nima qilamiz, bilmay turibmiz", dedi u.

Men esa viloyat partiya qo'mitasining boshqa bir topshirig'i bilan kelgan edim. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatligiga saylov bo'lishi kerak. Shu hududda markazqo'm ideologiya kotibi R.Abdullayeva nomzodi qo'yilishi kerak. Shu bois saylov uchastkalari ahvolini o'rgangan kelgan edim. Bu gapni eshitgach, tanamga sovuq suv qo'yilgandek bo'ldi. Hamma ishni tashlab, Shamsi akani qanday qilib himoya qilishni o'ylay boshladik.

Sh.Shukurov va boshqa faollar bilan birgalashib, viloyat va tuman partiya qo'mitasi rahbarlari nomiga talabnomalar yozdik. Bu xatda Sh.Nazarov o'sha paytda "paxta ishi" ni ko'rayotgan gdl-anhilar axtargan odam emasligi, halol va pokiza ekanligi yuzasidan real misollar keltirdik. Rais shaharchani barpo etishda hammasini qonuniy bajarganini

130 TA ARXEOLOGIK MADANIY MEROS OBYEKTINING YO'QOLIB KETISH XAVFI BOR

Zaminimizning boy madaniyati va qadimiyl tarixi necha asrlarki, dunyo xalqlarining yurtimizga qiziqishini oshirib kelmoqda. Ayniqsa, qadimiyl bino va inshootlar, arxeologik yodgorliklar, muqaddas qadamjolar buyuk ajdodlarimizning yuksak aql-farosati, noyob iste'dodi, bunyodkorlik salohiyatini namoyon etishi bilan kishini o'ziga ohanrabodek tortadi. Bu esa mamlakatimizda turizmni rivojlantirishga ham katta turtki beradi.



Shu bois nafaqat xalqimiz, balki butun insoniyatning moddiy madaniy merosi deb qaraladigan obidalarni asrab-avaylashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Qolaversa, bu obyektlar UNESCOning butunjahon merosi sifatida ro'yxatga olinib, muhofaza qilinadi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 4-oktabrdagi "Moddiy madaniy merosning ko'chmas mulk obyektlari milliy ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori bilan Samarqand viloyatida 1607 ta moddiy madaniy meros obyektlari ro'yxatga olingan, - dedi yaqinda xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi sessiyasida moddiy madaniy meros obyektlari va madaniy boyliklarni aniqlash, hisobga olish va muhofaza qilish yuzasidan olib borilayotgan ishlar haqida axborot bergan viloyat madaniy meros boshqarmasi boshlig'i Botir Shaymatov. - Ularning 973 tasi arxeologiya, 564 tasi arxitektura obyektlari, 36 tasi monumental san'at asarlari va 34 tasi diqqatga sazovor joylardir. Mavjud obyektlarning 1011 tasi respublika ahamiyatidagi, 596 tasi mahalliy ahamiyatdagi moddiy madaniy meros obyektlari bo'lib, ulardan 221 tasi shaxsiy mulkdagi turarjoy binolari hisoblanadi. Viloyatdagi madaniy meros obyektlarining 483 tasi, ya'ni 30 foizi Samarqand shahrida joylashgan.

Madaniy merosni davlat tomonidan muhofaza qilish va davlat nazoratini o'rnatish maqsadida 815 ta obyektka muhofaza belgilari, 244 tasida yo'l ko'rsatkichlar o'rnatilgan. Shu paytgacha viloyatdagi madaniy meros obyektlarining 1537 tasida davlat kadastr hujjatlari shakllantirilib va ularning har biriga bir nafardan jamoatchi inspektor biriktirildi.

Bugungi kunda viloyatdagi turizm salohiyatiga ega moddiy

madaniy meros obyektlariga 13 ta Wi-Fi va QR-kod, 50 ta audiogid o'rnatildi. Registon misolida Amir Temur maqbarasi, Bibixonim, Mirzo Ulug'bek, Shohi Zinda, Xo'ja Doniyor majmuasi va "Afrosiyob" muzeyida sayohlar kirishini elektron hisobga olish uchun zamonaviy turniketlar o'rnatilmoqda.

Boshqarma boshlig'ining ta'kidlashicha, moddiy madaniy meros obyektlarini aniqlash, hisobga olish, muhofaza qilish, targ'ib qilish, davlat reyestri, elektron katalogi, pasporti va davlat kadastrini yuritish, qo'riqlanadigan tegralarini belgilash hamda sohada doimiyl ravishda davlat nazoratini amalga oshirish maqsadida joylarga chiqilib o'rnanishlar olib borilmoqda.

Jumladan, 1607 ta obyekt qayta tarixiy-madaniy ekspertizadan o'tkazish uchun Madaniy meros agentligiga taqdim etilib, 789 ta obyektning pasporti shakllantirildi. Arxeologik madaniy meros obyektlarining 50 metrdan 100 metrgacha, arxitektura obyektlarining ikki metr balandlik barobarida muhofaza tegralari belgilash ishlari olib borilmoqda.

Shuningdek, 130 ta yo'qolib ketish xavfi bo'lgan arxeologik madaniy meros obyektlarini ro'yxati shakllantirilib, Madaniy meros agentligiga taqdim etildi. Ta'mirlash va obodonlashtirishga muhtoj bo'lgan 55 ta moddiy madaniy meros ko'chmas mulk obyektlarining ro'yxati shakllantirilib, har bir obyekt yuzasidan nuqson dalolatnomalari rasmiylashtirildi.

Bundan tashqari, 176 ta yangi arxeologik madaniy meros obyekti aniqlanib, ularni milliy ro'yxatga kiritish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligiga taqdim etildi.

Turizm obyektlarining muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini yaxshilash, obodonlashtirish, madaniy-ko'ngilochar infratuzilmalarni rivojlantirish maqsadida o'tgan yil 15 ta madaniy meros obyektida restavratsiya va konservatsiya ishlari amalga oshirildi. Joriy yilda viloyatimizda 22 ta obyektka restavratsiya va qurilish-ta'mirlash ishlarini amalga oshirish belgilangan.

Bugungi kunda UNESCOning Umumjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan Samarqand tarixiy markazi 1123 gektar va uning muhofaza zonasi 1369 gektarni tashkil etadi. Ushbu hududda o'zboshimchalik bilan olib borilayotgan qurilishlar aniqlanib, ularga nisbatan qonunchilikda belgilangan tartibda choralar ko'rilmog'ida.

G'.HASANOV.

Qizingiz ro'zg'or tutumini biladimi?

Turmush chorralarida

Qiz tug'ilganda "jannat kaliti" deya e'tirof etiladi, sirdoshim bo'ladi, ortimdan yig'laydiganim deb ko'ngil taskin va quvonchga to'ladi. Aqlli qizni ko'rganimizda tarbiya qilgan ona-onangga rahmat, deya ko'zimiz qunmaydi. Afsuski, odob-axloq doirasidan chiqib ketadigan qizlar ham bor-ki, ular-

di, ota uyida erka bo'lgan kunlarini qo'rmaydi. Millatimiz nima uchun qiz bola tarbiyasiga katta ahamiyat bergani, buni hayot-mamot darajasida chiqarganiga turmushda ko'p guvoh bo'ldim. Ayniqsa, tuman hokimi o'rinbosari, xotin-qizlar qo'mitasi raisi vazifasida ishlagan yillarim xotin-qizlarning yuzlab chigal taqdirlarini ko'rdim, ko'plab og'riqli masalalarimiz borligiga amin bo'ldim.

To'g'ri, qarsak ikki qo'ldan chiqadi, ammo ayol ilmi, ma'rifati, uquvlari bo'lsa, erkak ham oilasidan ko'ngli to'q bo'ladi. Gohida qizlari faqat ro'zg'or ishlarga tayyorlash ham unchalik to'g'ri emas. Qiz bola o'z haq-huquqlarini anglaydigan, muomala madaniyatini o'zlashtirgan, asosiysi, bir kasb yoki hunarning egasi bo'lmog'i kerak.

Qiz bola tarbiyasida, umuman, farzand tarbiyasida bizda qadriyat darajasiga chiqqan va hech qayerda yozilmagan udumlarimiz bor.

Yoshligimda onamdan "Olgan narsangni joyiga qo'y, qaychini ishlatibsan, nega joyiga ilib qo'ymading?", "ipni ishlatib, qutisiga sol va qutini joyiga qo'y", degan tanbehlarini ko'p eshitardim. Men esa "Ona, shu narsa aynan shu yerda tursin degan gap qayerda yozilgan?", derdim. Onamning bu qat'iy talablarini tushunmasdim. Ayniqsa, oshxonada kappgir, cho'mich

ilinadigan joy bo'lardi, qoshiqlar solinadigan idish, pichoq turadigan tokcha, go'sht to'g'rash uchun alohida pichoq. Tuz, shakar maxsus qutilarda... Bu ro'yxatni uzoq davom ettirish mumkin. Ayniqsa, choynakni artish uchun onamning bir kashfiyoti bor edi, ya'ni bir parcha latta chetiga cho'p bog'lab qo'yilgan bo'lardi. Latta bilan choynakni artgach, cho'pcha bilan choynakning chumagi tozalanardi. Besh farzandning sochiqlarim chetiga isminim tikib yozilgan bo'lib, bu adashib ketishdan saqlardi...

Ulg'aydim, ko'p xonadonlarda ro'zg'or tutumlarini ko'rib, onajonimning ro'zg'or tutumi haqiqiy maktab, momolarimiz ardoqlab kelayotgan hayot qonuni ekanini angladim. Negaki, bitta qaychi izlanib, butun uy alg'ov-dalg'ov bo'lib ketar ekan. Ayrim ro'zg'orlarda oq ip topilsa, qora ip topilmas, ikkalasi ham topilsa, igna topilmas ekan. Tuz duch kelgan joyda qadog'i bilan ochilib, shakar sochilib yotar ekan... Demog'chi bo'lganim, bu ilmi har bir ona qiziga o'rgatishi lozim. Ayniqsa, onam bizga kitob mutolaasida doimo o'rnatib ko'rdi. Beshik turgan ko'rpacha ostida kitob turardi. Ro'zg'or ishlardan bir zumga ortib, beshikka ko'krak tutgan onam fursatni qanimat bilib, ko'rpacha tagidan kitobni olib, xatcho'p bilan belgilab qo'ygan joyidan o'qishga tushardi. So'ng bizga kitob mazmunini qiziq kino ko'rgan-

dek to'liqlanib so'zlab berardi. Kitoblar ko'zimizga mo'jiza bo'lib ko'rinaridi.

Tadbirdakorlik so'zi lug'atimizga yaqin yillarda kirib keldi. Lekin momolarimiz tabiatida tadbirdakorlik doim bo'lgan. Buvimning ro'zg'or tutumlari ham meni hayratlantirgan. Ro'zg'or uchun bozordan deyarli oziq-ovqat mahsulotlari sotib olinmasdi. Chunki hovlidagi 50-60 ta tovuq tuxum manbai, sigir sut, qatiq, qaymoq, yog' "zavodi" edi. Polizda yetishtirilgan kartoshka, sabzi, sholg'om qish ostonasida o'rta ko'milar, uzum chordoqqa tizildirdi. Mo'jaz bog'ning mevalari sharbat, murabbo, qoqiga aylanib, yerto'ladan joy olardi. Mehr berib o'stirgan qirmizi, ta'mi asal olmalarning dovruqi o'lislarga ketgan, xaridorlar shahardan izlab kelishardi...

Ha, buvim yetti murg'ak go'dagi bilan beva qolib, halol mehnat ortidan barcha bolalarini o'qitdi, hech kimdan kam qilmadi. Sabrni, shukrni qalbiga tug'dek ilib yashadi. Bugun mahalla, hokimiyat eshigida yordam, imtiyoz ilinjida kunda kelishni kanda qilmaydigan, to'rt mучasi sog'lom ayollar nega momolarimiz ro'zg'or tutumini unutib qo'ymoqda? Nega qadriyat darajasiga kelgan bu tutumlardan bugunning qizlari xabardor emas? Axir bu zanjirni uzishga hech kimning haqi yo'q-ku'!

Gulshan SHERMATOVA, Nurobod tumani targ'ibot guruhi rahbari.

o'z ishini davom ettirsin", degan topshiriq keldi.

Mening uch kunlik safarim tugadi. Shamsi Nazarov bilan xayrlashib, ketdim. U kishi chiroyli duo qildilar:

- Qizim, juda qat'iyatli, irodali ayol ekan-san. Avvalo, ota-onangga rahmat. Ilohim, boshing hamisha omon bo'lsin!

Ra'no SOHIBOVA, jurnal. Buxoro shahri.

SHU OYDA TAVALLUD TOPGANLAR

5-SENTABR

Ravshan MAHMUDOV - (1925-1943) Samarqand tumanida tug'ilgan. Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi. Qahramon.

Abduvohid JUMABOYEV - 1950-yilda Payariq tumanida tug'ilgan. Fizika-matematika fanlari doktori.

Murodqosim ABDIYEV - 1963-yilda G'allaorol tumanida tug'ilgan. Filologiya fanlari doktori.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 16 406 nusxada chop etildi. Buyurtma 476. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LONLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxonalar manzili: Samarqand shahri, Spitamten ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti: soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi: soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

S.MARDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



Sotuvda narxi kelishilgan holda

